



SOYA O‘SIMLIGINI SHONALASH DAVRLARIDA ORGANIK MASSA TO‘PLANISHIGA AZOT O‘G‘ITI ME‘YORLARINI TA‘SIRI

*M.Nazarov - Farg‘ona davlat universiteti
Ekologiya kafedراسi professori
M.G.Maxsudova, T.E.Usmanova*

Annotatsiya. Soya o‘simligi bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida jami 127 mln. ga maydonda yetishtirilmoqda. Ekin maydoni bo‘yicha dunyoda bug‘doy, makkajo‘xori va sholidan keyin 4-o‘rinni egallaydi. O‘zbekistonda soya o‘simligi 2018-yilda 18500 ga, 2019-yilda 19800 ga, 2020-yilda 17314 ga, 2021 yilda 59853 gektar maydonda yetishtirildi va mo‘l hosil olindi. 2022-yilda jami 80 000 gektar maydonga soya ekinini ekilib, parvarish qilish ishlari davom ettirilmoqda. Aholi sonining ortishi o‘simlik yog‘iga bo‘lgan ehtiyojning yanada ortishiga olib kelmoqda. Bu esa moyli ekinlarga alohida e‘tibor qaratishni talab etmoqda. Soyadan mo‘l hosil olish asosan uni oziqlantirish va turli zararkunandalarga qarshi kurash ishlarini o‘z muddatlarida olib borishni taqozo qiladi.

Аннотация. Соевое растение сегодня насчитывает в общей сложности 127 миллионов во многих странах мира. га выращивается в поле. По площади посевов занимает 4-е место в мире после пшеницы, кукурузы и риса. В Узбекистане соевое растение было выращено на площади 18 500 га в 2018 году, 19 800 га в 2019 году, 17 314 га в 2020 году, 59 853 га в 2021 году, и был получен богатый урожай. В 2022 году соевые культуры будут посажены на площади 80 000 гектаров, и работы по уходу продолжатся. Рост населения приводит к дальнейшему увеличению потребности в растительном масле. А это требует особого внимания к масличным культурам. Получение обильного урожая сои в основном требует проведения работ по ее подкормке и борьбе с различными вредителями в установленные сроки.

Kalit so‘zlar: Soya, g‘unchalash, gullash, biologik massa, tabiiy, o‘simliklar, dukkaklar, azot o‘g‘iti, gullash, fiziologik funksiyasi.

Ключевые слова: тень, бутоны, цветение, биологическая масса, природная, растения, стручки, азотные удобрения, цветение, физиологическая функция.



Kirish. Har qanday tabiatda mavjud bo'lgan o'simliklar hayotiy jarayonlari davomida quyosh nuri ta'sirida barglaridagi xloroplastlari orqali ildiz orqali erkin ozuqa moddalari yordamida organik moddalar hosil bo'lishligi tuproq va iqlim sharoitlariga mos holda turli miqdorda biologik massa hosil qiladilar. Bu organik yoki quruq massa o'simliklarni urug'idan ko'karib yashil rangga kirgandan so'ng boshlanib bu jarayon ontogenezi yoki tabiiy ravishda sovuq tushgunga qadar davom etadi, madaniy ekinlarda esa navlarning biologik xususiyatlariga hamda yaratilgan ishlov berish texnologiyalari sifatiga qarab turlicha vaqtlarni o'z ichiga oladi. Tajribalarda bug'doy o'rib olingan, haydalgan yerlarga soya ekilgan variantlarda 3-5 barg hosil qilish davrida, g'unchalash, gullash va gullash - dukkaklar shakllanayotgan fazalarda 25 o'simlikda, 4 takrorlikda o'simliklarni turli miqdorda azot o'g'itlarini organik massa to'planishiga ta'siri o'rganildi. Har bir variantdan 5 donadan har fazada o'simliklarni ildizi bilan yulib olinib organlariga ya'ni ildiz (20 sm mevasi) elektron tarozida tortib o'rganildi. 0,1 gramm aniqlikkacha nol massasi quyosh to'g'ri tushmaydigan, ammo issiq joyda quritildi, uni biz quruq (organik) massa deb nomladik. 3- jadval ma'lumotlari ko'rsatishicha muhitda 16% ga teng bo'lgan quruq massasi 2022 yil yozda ekilib parvarishlanganda nazorat variantida 0,27 g, 2 variant 0,55 g (yoki 2g) ortik, o'g'itlar 60,90,120 kg bo'lganda 0,60; 0,62; keyingi variantlarda 0,79 gramiga ortib bordi. Har bir variantdan fenologik o'lchovlarda o'simlik bo'yi (strukturasi) ga qarab o'rtacha chiqqan sonlarga asoslanib 5 o'simlik olindi. Bu ishda duch kelgan tupni olib bo'lmaydi, ya'ni geklardagi umumiy o'simlik holatiga baho berishda aniqroq ma'lumotlar olinadi. 2022- yil bahorda ekilgan soya o'simligini namligi 15-16% ga kelishi uchun 10-12 kun vaqt kerak bo'ldi, o'rtachasini vazni olingan o'simliklar soniga hisob soyani 3-5 barg shakllangan davrida organik massasi vazni 0,32gr ni tashkil etdi, shundan 0,12 gramm poya tashkil etdi. Ammo azot o'g'itlari berilgan va miqdori 30 kg ga gacha oshirilganda bitta tupning vazni 0,5g ga yoki 2 martagacha ortdi 3-4- variantlarda esa 0.61g,0.63g ga quruq modda to'pladi. Ikkinchi fazada ya'ni g'unchalashda, bir tup o'simlik vazni nazoratda 6,5 g bo'lgan bo'lsa 30 kg variantda 8.71 g, keyingi variantlarda 11.37g, 14.84g gacha ortib bordi. Azotli o'g'itlar keyingi fazalarida ham o'z ta'sirini ko'rsatib gullash fazasiga kelib 61.46, 68.99, 76.23, gramm ortib bordi, ayniqsa mevalar vazni nazorat variantida 13.63g dan ikkinchi variantda (30 kg N) 22.3g, uchinchi variantda (60 kg N) 33.41g, so'ngi (60 kg N) variantda 38.44g ni tashkil qildi. 3 va 4- variantlar mevalar vazni 1 va 2-variantlardan ko'ra ko'p meva organlarini shakllanganligini ko'ramiz. Aniqlandiki, gullash va dukkaklash fazalariga kelib barcha organlarni rivojlanishi keskin ortib eng ko'p vegetativ massa



nazoratda (poya barg) 22.22g. Dukkaklar vazni 23.43g. jami biomassa 68.09 g tashkil qildi. O'g'it normasi 30 kg ga qo'llanganda 26.2g dukkagi 30.41g, jami generativ organi 87.27g tashkil qilgan. Azot o'g'iti meyori 60 kg li 3-variantda bu fazaga kelib poya + barglar 33g, shoxlari 24.3g dukkaklar 37.71 grammi jami vazni 96.87 tashkil etdi. Azot normasi 90 kg li 4-variantda o'simlikdagi poya+barg+shoxlar yanada ortdi 64.41 gramm dukkaklarida esa 38.34g vaznga yetib keldi.

Xulosa: Keltirilgan ma'lumotlarga tayanib xulosalar qilsak to'liq shakllangan har bir tup gullash va dukkaklash fazasiga kelib o'z vaznini meva - gul va dukkaklarni ko'payishiga moddalarni ortishiga olib keldi. Demak xulosa qilish mumkinki, soya o'simligi azotli o'g'itlar ortib borgan sari irsiy jihatdan yuqori hosildorlik imkoniyatini namoyon etishi kuzatildi. O'simliklarning asosiy fiziologik funksiyasi fotosintez natijasida organik modda ya'ni quruq massa to'plashidir. Bu jarayonda oziqlanish, yorug'lik, harorat, suv bilan ta'minlanish darajasi, tuproqdagi aeratsiya zaruriy omillardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nazarov M va boshqalar. Dexqonchilikda sof maxsulotlar yetishtirish texnologiyasi. Farg'ona. 1995 y.
2. Mirzajonov K.M, Nazarov M va boshqalar. Tuproq muhofazasi. Toshkent. "Fan va texnologiya". 2004 y.
3. Nazarov M. Moybob ekinlarni parvarishlash. Farg'ona. 1992
4. Nazarov M. Va boshqalar. Dehqonchilikda sof mahsulotlar yetishtirish texnologiyasi. Farg'ona 1984
5. Mannapova M. Ekma burchoq-qurg'oqchil tuproq ekini. Dehqonchilik muammolari, tadqiqot va yechimlar. O'ZPITI Farg'ona filiali xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Farg'ona nashriyoti, 2008 y.
6. Abdullayeva, M. T., & Akhmedova, G. D. (2023). Impact of motor vehicles on atmospheric air. *World bulletin of public health*, 20, 104- 106.
7. Zakirova, S., Xolmatova, S., & Soliyev, A. (2021, July). Meliorative status of sand development. in *конференции*.
8. Abdullayeva, M. T., & Akhmedova, G. D. (2023). Impact of motor vehicles on atmospheric air. *World Bulletin of Public Health*, 20, 104- 106.
9. Hamidov, G., Makhsudov, K., & Makhsudova, G. (2021, August). ON THE PROCESS OF NECTAR SEPARATION OF MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES IN THE FERGANA VALLEY: <https://doi.org/10.47100/conferences.v1i1.1365>. In RESEARCH SUPPORT CENTER CONFERENCES (No. 18.06).
10. Ahmedova, D. M., & Maksudova, G. M. (2020). МОРФОЛОГИЯ ПЫЛЬЦЫ НЕКОТОРЫХ ВИДОВ И ГИБРИДОВ ХЛОПЧАТНИКА. *Theoretical & Applied Science*, (5), 84-87.